

Xayitgul Pirmedova

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Axborot-resurs markazi direktori
E-mail: Khaytgul1971@gmail.com*

O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURTLARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan axborot-resurs markazlari resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-resurs markazlarining o'rni, elektron va raqamli resurslardan foydalanish holati hamda mavjud muammolar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** axborot-resurs markazi, oliy ta'lim muassasalari, elektron resurslar, raqamli kutubxona, axborot savodxonligi, ta'lim sifati, innovatsion xizmatlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

ENHANCING THE EFFICIENCY OF INFORMATION AND RESOURCE CENTER UTILIZATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

***Abstract.** This article analyzes the issues of improving the efficiency of using the resources of Information and Resource Centers operating in higher education institutions of Uzbekistan. It also examines the role of information and resource centers in the modern educational process, the current state of using electronic and digital resources, as well as existing challenges in this area.*

***Keywords:** information and resource center, higher education institutions, electronic resources, digital library, information literacy, quality of education, innovative services, research activity.*

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va ta'lim sifati hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi PD-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[1]gi qarori oliy ta'lim sohasini tizimli isloh qilish, ta'lim va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish hamda sifatli kadrlar tayyorlashni strategik maqsad qilib belgilaydi. Mazkur konsepsiyada oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar, raqamli axborot resurslari hamda jahon ta'lim standartlariga mos sharoitlarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish topshirilgan.

Bundan tashqari, Prezidentning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[2]gi qarori oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash va talaba hamda o'qituvchilarning jahon ta'lim resurslariga keng kirishini ta'minlash vazifalarini qo'ygan.

Bu qarorlar doirasida oliy ta'lim muassasalarida axborot va ilmiy resurslar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron kutubxonalar va global ilmiy bazalarga kirishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur yondashuv raqamli ta'lim muhiti shakllanishi natijasida axborot-resurs markazlarining rolini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, amaliyotda axborot-resurs markazlaridan foydalanish samaradorligi masalalari oliy ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini samarali amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy ta'lim sharoitida elektron va raqamli resurslardan samarali foydalanishning pastligi, foydalanuvchilarning axborot savodxonligi darajasining yetarli emasligi hamda texnik muammolar oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayoni samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, Prezident qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, axborot-resurs markazlari resurslaridan

foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Axborot-resurs markazi (ARM) oliy ta'lim muassasasining ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-madaniy jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strukturaviy bo'linmasi hisoblanadi. U kutubxona va axborot xizmatlarini integratsiyalashgan holda amalga oshiruvchi asosiy infratuzilma bo'lib, oliy ta'lim tizimida ilmiy bilimlar almashinuvi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. ARM faoliyati oliy ta'lim tizimining global rivojlanish tendensiyalari hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida qonuniy tartibga solinadi. Masalan, har bir institut tuzgan Axborot-resurs markazi to'g'risidagi nizomlar va foydalanish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va vazirlik buyruqlari bilan mustahkamlanadi.

Axborot-resurs markazi oliy ta'lim muassasasining ilmiy, o'quv va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi axborot-kutubxona tizimi sifatida ta'riflanadi. U nafaqat an'anaviy kutubxona xizmatlarini (kitob va qo'lyozmalar bilan ishlash), balki elektron va raqamli resurslar orqali ta'lim olishga, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratadi.

ARMning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Foydalanuvchilarni ilmiy-ta'lim resurslari bilan ta'minlash va ularni axborot texnologiyalari orqali keng axborot bazalariga bog'lash;
2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash uchun elektron kataloglar, ma'lumotlar bazasi va ilmiy adabiyotlar bilan xizmat ko'rsatish;
3. Foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirish va zamonaviy axborot qidirish ko'nikmalarini shakllantirish;
4. Kutubxona bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar asosida fondni shakllantirish, saqlash va yangilash.

An'anaviy va elektron resurslar farqi

An'anaviy resurslar – qog'oz shaklidagi kitoblar, jurnallar va qo'lyozmalar bo'lib, ular uzoq yillar davomida akademik bilimlarni saqlash va yetkazishda xizmat

qilgan. Biroq raqamli asrda elektron resurslar: elektron kitoblar, onlayn jurnallar, ilmiy ma'lumotlar bazalari va axborot platformalari ilmiy izlanish va o'qish jarayonini tezlashtiradi hamda masofaviy foydalanish imkonini beradi. Elektron resurslar orqali talabalar va tadqiqotchilar o'zlariga kerakli ilmiy materiallarni istalgan vaqtda topishi hamda talabalar uchun interaktiv o'quv muhitini yaratish samaradorligini oshiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron resurslar kutubxonalarning qulay xizmatlarini yanada kengaytiradi va foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi [3].

Axborot-resurs markazlari oliy ta'limda quyidagi asosiy rollarni bajaradi:

Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash: ARMLar o'quv adabiyotlari, darsliklar hamda metodik qo'llanmalarni ta'minlab, talabalar va o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali o'tishda yordam beradi. Bu jarayon an'anaviy audiovizual resurslardan tortib, elektron kataloglar va onlayn kutubxonalargacha keng imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-tadqiqot yordami: ARMLar ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, onlayn ma'lumotlar bazalari va ilmiy jurnallar obunalarini ta'minlab, talabalar va ilmiy xodimlarni ilmiy izlanishlarga yo'naltiradi. Shu bilan birga, ARM tomonidan elektron va an'anaviy resurslardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etilishi ham samaradorlikni oshiradi.

Tarbiyaviy ahamiyati: Axborot-resurs markazlari talabalarda axborot madaniyati, mustaqil o'qish va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularni nafaqat akademik bilim, balki tanqidiy fikrlash va mustaqil izlanishga yo'naltirish orqali tarbiyaviy jarayonga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Talabalar uchun ARM quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: eng axborot bazalariga kirish (elektron va an'anaviy); ilmiy maqolalar va tadqiqot resurslarini topish bo'yicha yordam; internet va elektron xizmatlar orqali masofaviy foydalanish; ilmiy seminarlar, treninglar va konsultatsiyalar. Professor-o'qituvchilar uchun esa ARMLar: o'quv rejalari tayyorlashda ilmiy manbalarni topish va kiritish imkonini beradi; dissertatsiyalar, ilmiy izlanishlar va nashrlar uchun zarur adabiyotlarni

taqdim etadi; professional bibliografik xizmatlar orqali ilmiy yutuqlarni qo'llab-quvvatlaydi [4].

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ARM resurslaridan foydalanishda mavjud muammo va kamchiliklar

Oliy ta'lim muassasalarida ARM resurslaridan foydalanish samaradorligi bir qator tashkiliy, texnik va axborot madaniyati bilan bog'liq muammolar bilan cheklangan. Elektron va an'anaviy resurslar bilan ishlash bo'yicha foydalanuvchilarning yetarli ko'nikmalarga ega emasligi, ARM xodimlarining foydalanuvchilarga yetarlicha yordam bera olmasligi, shuningdek texnik infratuzilmaning yetishmasligi ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonining sifatini pasaytiradi. Shu sababli, samaradorlikni oshirish uchun foydalanuvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish, elektron bazalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ARM xodimlarining malakasini oshirish va texnik hamda tashkiliy imkoniyatlarni yaxshilash zarur. Hozirgi kunda mamlakatimizda ARM resurslaridan samarali foydalanishdagi mavjud muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ARM resurslaridan foydalanish darajasining pastligi – Talabalar va professor-o'qituvchilar ARM xizmatlaridan muntazam foydalansa-da, elektron bazalar va raqamli platformalardan foydalanish darajasi past bo'lib, ko'pchilik foydalanuvchilar an'anaviy kutubxona xizmatlariga tayanadi.

Elektron bazalarga kirish va foydalanish bilan bog'liq muammolar

– Talabalar va o'qituvchilar elektron bazalardan samarali foydalanishni bilmaydi; ba'zi muassasalarda litsenziyalangan elektron jurnallar va onlayn ilmiy bazalarga to'liq kirish imkoniyati mavjud emas; masofaviy foydalanish imkoniyatlari yetarli emas.

Talabalarda axborot madaniyatining yetarli emasligi – Talabalar mustaqil izlanish va ilmiy ma'lumotlarni topish ko'nikmalariga ega emas; axborot qidirish va bibliografik xizmatlardan foydalanish darajasi past, bu esa ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayonining samaradorligini cheklaydi.

Kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasidagi axborot aloqasi muammolari

– ARM xodimlari foydalanuvchilarga yetarli yo'l-yo'riq bera olmaydi, maslahatlar va interaktiv yordam xizmatlari yetarli emas.

Texnik va tashkiliy kamchiliklar – Serverlar, kompyuterlar va Internet tezligi yetarli emas; resurslar va xizmatlarni yagona integratsiyalashgan platforma orqali boshqarish tizimi mavjud emas; ARM xizmatlarining monitoringi va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchanligi yetarli darajada amalga oshirilmagan.

ARM resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari (ARM) resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, samaradorlikni oshirish bir necha strategik yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirish.

Talabalar va professor-o'qituvchilar ARM resurslaridan samarali foydalanish uchun axborot savodxonligini oshirish zarur. Bu quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- foydalanuvchilarga elektron va an'anaviy resurslardan foydalanish bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda axborot qidirish va bibliografik xizmatlardan foydalanish bo'yicha konsultatsiya xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- talabalar va ilmiy xodimlar uchun interaktiv qo'llanmalar va video-darsliklar yaratish [5].

Elektron bazalar va raqamli resurslarga kirishni kengaytirish.

Samarali foydalanish uchun ARMLar quyidagi imkoniyatlarni kengaytirishi lozim:

- litsenziyalangan elektron jurnallar, ilmiy ma'lumotlar bazalari va onlayn platformalarga keng kirish;
- masofaviy foydalanish imkonini beruvchi VPN va raqamli kutubxona xizmatlarini joriy etish;

– foydalanuvchilarga resurslardan tezkor va qulay foydalanish uchun integratsiyalashgan qidiruv tizimlari yaratish.

ARM xodimlarining malakasini oshirish.

ARMning samarali faoliyati xodimlarning malaka darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois bizning fikrimizcha:

- kutubxonachilar va axborot mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish bo'yicha treninglar va kurslar o'tkazish;
- zamonaviy axborot xizmatlari, bibliografiya va elektron resurslarni boshqarish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish;
- xodimlarning ilmiy-tadqiqot va ta'lim jarayonlariga faol jalb qilinishini rag'batlantirish.

Texnik va tashkiliy imkoniyatlarni yaxshilash lozim.

ARM samaradorligini oshirish uchun texnik va tashkiliy jihatlar ham muhim: serverlar, kompyuterlar va tezkor internet bilan jihozlash; resurslar va xizmatlarni yagona integratsiyalashgan platforma orqali boshqarish;

- ARM xizmatlarining monitoringi va foydalanuvchi fikrlarini o'rganish tizimini joriy etish;
- ta'lim muassasalarida ARMni ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayoniga faol integratsiya qilish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ARM resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida bir nechta strategik choralarni amalga oshirish zarur. Avvalo, ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish, ya'ni elektron va raqamli resurslarni dars va tadqiqot jarayonlariga samarali kiritish muhimdir. Shu bilan birga, talabalar va professor-o'qituvchilarni mustaqil izlanish va ARMning elektron resurslaridan faol foydalanishga rag'batlantirish, ularning axborot savodxonligini oshirish hamda izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Optimal natijaga erishish maqsadida, elektron va an'anaviy resurslarni birlashtirgan aralash strategiya ishlab chiqilishi, bu orqali resurslardan samarali va barqaror foydalanish

imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ARMning funksional roli va tashkilot ichidagi ahamiyatini kuchaytirish, foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchan xizmatlarni rivojlantirish orqali ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshiriladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari (ARM) resurslaridan foydalanish samaradorligi ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatdiki, ARM faoliyatida mavjud bo'lgan muammolar – elektron va an'anaviy resurslardan foydalanish darajasining pastligi, talabalar va professor-o'qituvchilarning axborot madaniyati yetarli emasligi, kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasidagi muloqotning samarali tashkil etilmasligi, shuningdek, texnik va tashkiliy infratuzilmaning cheklanganligi – ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ARM resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bir qator strategik choralarni talab qiladi. Avvalo, talaba va professor-o'qituvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish, ularni elektron va an'anaviy resurslardan faol foydalanishga rag'batlantirish muhimdir. Shuningdek, ARMning funksional roli va xizmatlarining foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshirish, texnik va tashkiliy imkoniyatlarni mustahkamlash, elektron bazalarga to'liq va masofaviy kirish tizimini yaratish orqali ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Umumiy xulosa shuki, ARM resurslaridan samarali foydalanish oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlar, mustaqil o'qish va pedagogik jarayonning sifatini oshirishga bevosita xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi va mamlakatimizda bilimlar iqtisodiyotini shakllantirishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlari bazasi. <https://lex.uz>
2. Qurbanova, M. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar tahlili. *Green Economy and Development Journal*, Vol.1 No.1, 07 Feb 2024. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a917
3. Raxmatullayeva, Sh., Narziyeva, O. Kutubxonachilarning axborot boshqaruvidagi roli: ilgari va hozirgi zamondagi o'zgarishlar // *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. — Toshkent, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.14843484>
4. Olimov I. "Sharqni o'rganish kutubxonalardan boshlanadi," *Yosh olimlar ilmiy jurnali*, 2025 — axborot kutubxona tizimi va uning ta'limdagi o'rni haqida maqola. <https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view>
5. Olimov I. "Sharqni o'rganish kutubxonalardan boshlanadi," *Yosh olimlar ilmiy jurnali*, 2025 — axborot-kutubxona tizimi va uning ta'limdagi o'rni haqida maqola. <https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view>